

dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida.

.. 6 .. 01 2022 yil.

Farg'ona shahri.

Ushbu shartnoma bir tomondan "FARG'ONA DORI-DARMON" aksiyadorlik jamiyati nomidan boshqaruv raisi M.A.Tursunov vakilligida kelgusida «Sotuvchi» va ikkinchi tomondan, "Farg'ona qasot" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi Salijonov A.T. vakilligida kelgusida «Xaridor» o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti.

1.1. «Sotuvchi» ushbu shartnomaga asosan «Xaridor»ga umumiy qiymati 150000000 (Bir yuz ellik million) so'm bo'lgan (summa raqam va so'z bilan yoziladi)

dori vositalari xamda tibbiy buyumlar (kelgusida «Tovar» deb nomlanadi)ni bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.

1.2. «Xaridor» esa o'znavbatida ushbu «Tovar»lar haqini shartnomaning 3.1.-bandida belgilangan tartib va shartlar asosida «Sotuvchi»ga to'laydi.

2. Taraflarning huquq va majburiyatlari.

2.1. «Xaridor» ning huquq va majburiyatlari:

2.1.1. «Xaridor» ushbu shartnomaning 3.1. bandida ko'rsatilgan summani «Sotuvchi»ning hisob-raqamiga oldindan to'lagan holda o'ziga yetkazib berilishi lozim bo'lgan «Tovar»ni tegishli hujjatlar asosida «Sotuvchi»dan qabul qilib olish majburiyatini oladi.

2.1.2. «Xaridor» «Sotuvchi»dan O'zbekiston Respublikasi farmakologik ruyxatdan o'tkazilib, ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va uramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan xamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan «Tovar»larni talab kilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan «Tovar» sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, «Xaridor» «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi tug'risida» gi Qonunining 26-moddasiga muvofik «Tovar»ni qabul qilishni xamda ularning haqini to'lashni rad etib, «Sotuvchi» dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan «Tovar» qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

2.1.3. «Xaridor» tomonidan «Sotuvchi»ga yillik berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni «Sotuvchi» asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun «Sotuvchi» «Xaridor»ga yetkazib berilmagan «Tovar» umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

2.2. «Sotuvchi»ning huquq va majburiyatlari:

2.2.1. «Xaridor» tarafidan ushbu shartnomaning 3.1. bandida ko'rsatilgan to'lov amalga oshirilgach «Sotuvchi» «Xaridor»ga «Tovar»ni belgilangan tartibda topshirish majburiyatini oladi.

2.2.2. «Xaridor»ning xoxishi bilan «Sotuvchi» «Tovar»ni o'z transport vositalarida «Xaridor»ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish xarajati belgilangan tartibda «Xaridor» tomonidan qoplanadi.

2.2.3. «Sotuvchi»ning transport vositasida yetkazilgan «Tovar»ning miqdoridan aniqlangan kamomad xamda sifatsizliklar yuzasidan «Xaridor» «Tovar» yetkazilgan kundayoq «Sotuvchi»ning vakili ishtirokida dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi va mazkur dalolatnomaga asosan kamomad xisobi «Sotuvchi» tarafidan to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb xisoblanadi va inobatga olinmaydi.

2.2.4. «Xaridor» tomonidan «Sotuvchi»ga yillik berilgan buyurtmalarni «Xaridor» ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda O'zbekiston Respublikasi «Xujalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi tug'risida»gi Qonunining 31-moddasiga muvofik olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) «Tovar» summasining 5 foizi, tez buziladigan «Tovar» lar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida «Xaridor» «Sotuvchi»ga jarima to'lashga majburdir.

3. To'lov tartibi.

3.1. «Xaridor» shartnoma imzolangandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan «Tovar» umumiy qiymatining 100 % foizini oldindan «Sotuvchi»ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi.

3.2. Yetkazib berilgan «Tovar» uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi «Xaridor» tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan xar bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'lmagan miqdorda «Xaridor» «Sotuvchi»ga penya to'laydi.

4. Taraflarning mulkiy javobgarliklari.

4.1. Taraflarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5. Fors-major holatlari

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

6. Nizolarni hal qilish tartibi.

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonunchilikda belgilangan tartibda «Sotuvchi» joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

7. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi.

7.1. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi va taraflarda saqlanadi.

7.2. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat taraflarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.3. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan imzolaniib, muhr bilan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi va 31.12.2022 yil kuniga qadar amal qiladi, agarda taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmasa shartnoma majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amalda bo'ladi.

8. Taraflarning pochta manzilgoxi va to'lov rekvizitlari:

«Сотувчи»

«Харидор»

«FARG'ONA DORI-DARMON» AJ

Farg'ona sh. Al.Farg'oni ko'chasi 50 uy

X/r 2020 8000 0002 1531 8001

Uzbekiston Respublikasi «TIF Milliy Bank» AJ

Farg'ona viloyat bulimi

MFO 00493 STR 200 153 801

OKOHX 71212

QQS tulovchi : № 330050016140

Tel./Fax: (73) 244-66-14, 543-21-37

«Farg'ona xot' AJ

Farg'ona sh. Sanoat kacha 222

242-59-95

manzil: Kizilg'ili 50B

x/r: 20210000000228989001

bank: Kizilg'ili S.O.B

MFO: 00524 STIR: 200202240 OKNX-20152

Tel:

(telefon raqami yozilishi shart)

«FARG'ONA DORI-DARMON» AJ

boshqaruvi raisi

M.A.Tursunov



Rahbar:

Salijanov AT

(imzo, muhr, F.I.O.)

Huquqiy xulosa

Mazkur shartnoma loyihasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazib:

- Shartnoma loyihasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos xolda tuzilganligini;

- Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi hamda «Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni asosida belgilanganligini aniqladim.

Yuqoridagilarga asoslangan xolda shartnoma loyihasini qonun hujjatlari asosida tuzilgan deb hisoblayman va tomonlarga uni imzolashni tavsiya etaman.

«FARG'ONA DORI-DARMON» AJ yuristi

M.Yuldashev

(Signature)